

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

1-oktyabr- O'qituvchi va
Murabbiylar kuni



№9 – SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, SENTYABR





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University “Iqtisodiyot” fakulteti dekani professor

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 603 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29-sentyabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ЭТАПЫ РАЗРАБОТКИ МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	7
Кучаров Абдор Собиржонович, Бобожонов Азизжон Бабаханович, Хусейнов Рахим Али оглы	
KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASHGA QARATILGAN TA‘LIM XIZMATLARI KO‘RSATISH TURLARI TAHLILI	16
Ergashev To‘lqin Shokirovich	
ЭВОЛЮЦИЯ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	23
Мирисаев Абдурахман Абдулахатович	
E-COMMERCE DIFFERENCES BETWEEN DEVELOPING AND DEVELOPED COUNTRIES.....	33
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING MARKETING DASTURLARINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	40
Ikramova Taxmina Latifovna	
MINTAQAVIY RESURLARNI BOSHQARISHDA MENEJMENT YONDASHUVLARI: INSTITUTSIONAL NAZARIYA VA IQTISODIY XAVFSIZLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	50
Ismoilov Abdulxoliq Muxiddin o‘g‘li	
TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YETAKCHILIK MODELLARIDAN FOYDALANISH	60
Kazakov Olim Sabirovich	
TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI QABUL QILUVCHI MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIGA TA‘SIRI BO‘YICHA EKONOMETRIK DALILLAR: USLUBLARGA ASOSLANGAN SHARH	67
Madumarov Xusniddin Komilovich	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA‘MINLASHDA KORPORATIV MADANIYAT VA MARKETING STRATEGIYALARI UYG‘UNLIGI	78
Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna	
AHOLINING MODDIY FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI	84
Mirzamurodov Oltinbek Sultonali o‘g‘li	
SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN KICHIK BIZNESDA FOYDALANISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI	90
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
CHAKANA SAVDODA ONLAYN KO‘RIB, OFLAYN XARID QIL (ROPO) MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI ANIQLASH.....	98
Rajapova Gulmira	
TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY MEXANIZMLARNING ROLI VA SAMARADORLIGI	105
Agzamova Marguba Mirabdullayevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ISHLAB CHIQRISHNI AVTOMATLASHTIRISH, ERP VA CRM TIZIMLARINI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	113
Uzakova Umida Ruziyevna	
FEATURES AND DISADVANTAGES OF IMPLEMENTING THE DIGITAL ECONOMY FOR CONSTRUCTION COMPANIES	122
Kurbanova Maftuna Lazizovna, Muhammad al-Khwarizmi	
LEVERAGING INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN RETAIL THROUGH DISTRIBUTED DATA AND KNOWLEDGE-BASED SYSTEMS	134
Karimova Nafisabonu Djamshidovna	
XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNI BAHOLASH BO‘YICHA USLUBIY YONDASHUVLAR....	145
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	

FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING REMOTE BANKING SERVICE	154
Abduvohidov Abdumalik Mahkamovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING	
IQTISODIY-IJTIMOYIY OQIBATLARI TAHLILI	161
Xatamov Nurbek Ochildiyeovich	
THE IMPACT OF GREEN BUSINESS EDUCATION AMONG ENTREPRENEURS ON THE	
ECONOMY: A LITERATURE REVIEW	172
Amonov Sardor Zamon o'g'li, Turobova Hulkar Rustamovna	
ISTE'MOLCHILARNING EKOLOGIK ONGINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI	
MARKETINGNING ROLI	188
Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARNI BOSHQARISHNING	
XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	196
Uzakova Umida Ruziyevena	
TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH VA LOGISTIKA	
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH	
IMKONIYATLARI.....	203
Qilichev Umid Ibodullayevich	
UNIVERSITETNI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA BENCHMARKING USULIDAN	
FOYDALANISH YO'LLARI.....	210
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHI TAHLILI	219
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH	
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING	
NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	228
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK TOMONIDAN ISHLAB	
CHIQUILGAN MAHSULOT HAJMINING PROGNOZLASH.....	237
Xudoyorov Laziz Niyozovich	
РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ	
ГЛОБАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ.....	246
Азизов Ильдар Рафаэльевич	
TIJORAT BANKLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI RAQAMLI XIZMAT TURLARI ORQALI	
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLARI.....	254
Foziljonova Mushtariybonu Farruxbek qizi	
KORXONALAR PUL OQIMLARI BOSHQARUVIDA PROGNOZ USULLARIDAN FOYDALANISH	263
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
ELEKTRON SAVDO SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI	
INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING O'RNI VA AMALIY	
JIHATLARI.....	270
Abidjonov Nodirbek Odiljon o'g'li	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDAGI ILG'OR XORIJ MAMLAKATLAR	
TAJRIBASI.....	277
Rajabov Alibek Xushnudbekovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA YASHIL SUG'URTA KONSEPSIYASI: ZARURAT, JORIY	
HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	285
Zoyirov Laziz Subxonovich	
BREND QIYMATINI ANIQLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI VA ULARNING	
SAMARADORLIGI.....	294
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Odilov Akbarjon Nosirjon o'g'li	
XUSUSIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNI	
TAKOMILLASHTIRISH.....	304
Gulmatov Bahodir Xabibullayevich	

KORXONALAR BREND QIYMATINI ANIQLASHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI	311
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich	
MINTAQA TURIZM SALOHİYATINI VA UNGA TASIR ETUVCHI OMILLAR.....	318
Nasriddinov Husanbek Sadriddin o‘g‘li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI DON MAHSULOTLARI TARMOG‘IDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUV	324
Dildora Kurbanova	
XALQARO SAVDONING SIRKULAR IQTISODIYOT TAMOIYLLARIGA UYG‘UNLASHUVIDA ASOSIY TENDENSIYALAR.....	333
Muratova Shohista Nimatullayevna	
QISHLOQ XO‘JALIGI KLASSTERLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI.....	342
Yuldasheva Dildora Kamiljan qizi	
KOMPAINIYALARDA IQTISODIY KO‘RSATKICHLARNI YAXSHILASHDA XODIMLAR SALOHİYATINING O‘RNI.....	350
Sattarov Shuxrat Abug‘affarovich	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARI RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	355
O‘rozov Azamat Otaboyevich	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI KPI VA ROI INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	363
Muminova Dildora Dilshadovna	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT THROUGH INVESTMENT: INTERNATIONAL EXPERIENCE OF DEVELOPING COUNTRIES	371
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
MILLIY IQTISODIYOTNING TASHQI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHGA YONDASHUVLAR.....	378
Jalolov Bekzod Sherzod o‘g‘li	
“DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI” TOIFASIGA YONDASHUVLARNING PAYDO BO‘LISHI VA EVOLYUTSIYASI	384
Karimov Javlon Ko‘ziyevich	
ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) TAMOIYLLARINI DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA JORIY ETISH.....	395
Ismailov Allayor Rashidovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQRISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOIYLLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR.....	405
Achilov Ilmurad	
INVESTITSION SALOHİYATNI OSHIRISH ORQALI MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI	415
Qobilov Anvar Eshpo‘lotovich	
“YASHIL IQTISODIYOT” TAMOIYLLARI ASOSIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK SOHASIDA BOSHQARUV QARORLARINI ASOSLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	424
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA KOMPAINIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	433
Haqberdiyev Bekzod Uktamovich	
O‘ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA ATROF MUHIT MUHOFAZASINI TA‘MINLASH MAQSADIDA KICHIK BIZNES VA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	444
Uskenbayeva Dilnoza Bakhodir qizi	
TRANSPORT TIZIMLARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	453
Saidmurodov Feruz Sodiqjon o‘g‘li	

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MASALALARI	459
Xusanova Gavhar	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGI ASOSIY KO'RSATKICHLARI VA ULAR DINAMIKASI TAHLILI.....	467
Atayev Jahongir Erkinovich	
СОВРЕМЕННАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА	476
Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH BO'YICHA XORIY TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	487
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAHOLASH VA BOSHQA TUZILMALARNING O'ZARO HAMKORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	496
Rixsimbayev Odiljon Kabildjanovich	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH VA SANOAT KORXONALARINI JOYLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	505
Nuritdinov Botir Kodirxanovich	
INVESTITSIYALAR VA ULARDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	517
Isakov Axmadali Esanbaevich	
KORXONALARNI BUDJETLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBALARI.....	525
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA JORIY MEXANIZMLARNING TAHLILI	537
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TASHABBUSLI BYUDJETLASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARIGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR HAMDA ERISHILGAN NATIJALAR TAHLILI.....	545
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN DIGITAL MARKETING OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN.....	553
Sadikov Shokhrux Shukhratovich	
INVESTITSIYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	558
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA TURIZM SOHASIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH	566
Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna	
MINTAQALAR KESIMIDA INNOVATSION SALOHİYAT NOMUTANOSIBLIKLARINING SABABLARI VA EKONOMETRIK TAHLILI.....	576
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
MINTAQAVIY SANOATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	586
Ochilov Akram Odilovich, Ro'ziqulov Jamshid Ulug'bek o'g'li	
SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA UNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI.....	594
Sherov Sanjar Radjabovich	

INVESTITSION SALOHİYATNI OSHIRISH ORQALI MINTAQALARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Qobilov Anvar Eshpo‘lotovich

Qashqadaryo viloyat hokimining yoshlar siyosati,
ijtimoiy rivojlantirish va
ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari

ORCID 0000-0001-6019-7771

E-mail: kobilovanvar@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash masalalari tahlil qilingan. Investitsiya muhitining tarkibiy qismlari, investitsion siyosatning amaliy yo‘nalishlari, xorijiy tajriba va milliy amaliyot asosida taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Shuningdek, hududlar kesimidagi investitsiya faoliyati tahlil qilinib, infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsiyani joriy qilishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsion salohiyat, mintaqaviy rivojlanish, xorijiy sarmoya, iqtisodiy siyosat, innovatsiya, infratuzilma.

Аннотация

В статье проанализированы вопросы обеспечения социально-экономического развития регионов Узбекистана за счёт повышения их инвестиционного потенциала. Рассмотрены составные элементы инвестиционной среды, практические направления инвестиционной политики, а также представлены предложения и рекомендации на основе зарубежного опыта и национальной практики. Кроме того, проанализирована инвестиционная активность по регионам, освещено значение развития инфраструктуры, повышения кадрового потенциала и внедрения инноваций.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный потенциал, региональное развитие, иностранные инвестиции, экономическая политика, инновации, инфраструктура.

Abstract

The article analyzes the issues of ensuring the socio-economic development of the regions of Uzbekistan through the enhancement of their investment potential. It examines the structural components of the investment environment, practical directions of investment policy, and provides proposals and recommendations based on international experience and national practice. In addition, the article analyzes investment activity across regions and highlights the importance of infrastructure development, human capital improvement, and the implementation of innovations.

Keywords: investment, investment potential, regional development, foreign investment, economic policy, innovation, infrastructure.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan global integratsiya jarayonlari, raqobatning kuchayishi va resurslar uchun kurash har bir mamlakatdan o‘z iqtisodiy salohiyatini

muntazam ravishda oshirish, iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilish va investitsiya muhitini yaxshilashni taqozo etmoqda. Bugungi kunda har bir davlatning iqtisodiy qudrati va barqaror o'sish sur'atlari, avvalo, uning investitsion faolligi, sarmoyalarni jalb etish imkoniyati hamda mavjud salohiyatdan samarali foydalanish darajasi bilan belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, O'zbekistonda ham so'nggi yillarda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida mintaqalarda investitsion faollikni oshirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash masalasi alohida e'tibor markazida turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahbarligida qabul qilingan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" doirasida mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, xususiyl sektorini qo'llab-quvvatlash, xorijiy sarmoyani keng jalb etish va mintaqalarni jadal rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Strategiya doirasida umumiy qiymati 100 trln so'mdan ortiq bo'lgan yirik investitsiya loyihalari ishga tushirildi [1]. Bu jarayonlarda nafaqat davlat, balki xususiyl biznes, mahalliy hokimiyat organlari va xalqaro moliya institutlari faol ishtirok etmoqda.

Shu bilan birga, amaldagi holat tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, investitsiyalarning hududiy taqsimlanishida hali ham nomutanosibliklar mavjud. Masalan, Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlari mamlakatdagi umumiy investitsiyalarning katta qismini to'g'ridan-to'g'ri jalb etib, iqtisodiy jihatdan ilgarilab ketgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida investitsiya faolligi nisbatan past darajada qolmoqda. Bu esa hududlar o'rtasida iqtisodiy faollikning bir xil emasligi, infratuzilmaning notekis rivojlanganligi va aholi bandligidagi farqlarni keltirib chiqarmoqda.

2025-yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirish uchun barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 120,4 trillion so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi. Bu 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,9 foizni tashkil etadi. Mutlaq ko'rsatkichlarda o'sish 15,9 trillion so'mni tashkil etdi [2].

Investitsiya salohiyatining pastligi ayrim hududlarda ishsizlik darajasining yuqori bo'lishiga, iqtisodiy infratuzilmaning zaifligiga, ta'lim va innovatsiya sohalariga sarmoya yetishmasligiga olib kelmoqda. Bu holat o'z navbatida ijtimoiy barqarorlikka ta'sir qilib, aholi turmush darajasini pasaytiradi. Shu sababli, investitsiya siyosatini takomillashtirish, sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratish, hududiy salohiyatdan samarali foydalanish va investitsiya faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Shunday qilib, maqolaning asosiy maqsadi - O'zbekiston mintaqalarida investitsion salohiyatni oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkoniyatlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida investitsion salohiyatni oshirish masalasi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, investitsiya iqtisodiy o'sishning eng muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. O'zbek va xorijiy olimlar bu yo'nalishda turli nazariy va amaliy yondashuvlarni ilgari surganlar.

Masalan, iqtisodchi olimlar I.Fayziev va M.Jumaniyozovlar o'z tadqiqotlarida hududiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlash uchun investitsion muhitni takomillashtirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va infratuzilmaviy bazani kengaytirish zarurligini ta'kidlaydilar [3]. Ularning fikricha, investitsion salohiyatni baholashda tabiiy, moliyaviy, mehnat va innovatsion omillar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinishi lozim.

Shuningdek, professor A.V. Biktemirov va V.Ye. Kossov (Rossiya) o'z ishlarida investitsion muhitni yaxshilashda davlatning tartibga solish funksiyasi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatganlar. Ular davlat siyosati orqali sarmoyadorlar uchun kafolatlar yaratish, infratuzilmaga sarmoya kiritish va soliq imtiyozlarini joriy etish orqali investitsion faollikni oshirish mumkinligini ta'kidlaydilar [4].

Xorijiy tadqiqotchilardan M.Porterning "milliy raqobat afzalliklari" nazariyasida ham hududiy rivojlanishning asosi sifatida investitsiya muhiti, innovatsiya va klasterlashuv jarayonlariga alohida e'tibor qaratilgan. Uning fikricha, mamlakat yoki hududning raqobatbardoshligi to'g'ridan-to'g'ri sarmoya kiritish imkoniyatlari va iqtisodiy muhitning shaffofligi bilan bog'liq [5].

O'zbekiston olimlaridan Sh.Xodiev va B.Asadovlar "investitsiya siyosati va iqtisodiy o'sish" mavzusidagi tadqiqotlarida investitsiya faolligini oshirishda davlat-xususiy sheriklik (PPP), erkin iqtisodiy zonalar va raqamli boshqaruv tizimlarining rolini yoritib berganlar [6]. Ular fikricha, hududiy rivojlanishning samaradorligi sarmoyadorlar uchun yaratilgan huquqiy va institutsional kafolatlarga bog'liq.

Bundan tashqari, Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP)ning tahlillarida ham O'zbekistonda hududiy investitsiya muhitini rivojlantirish uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsiya infratuzilmasini yaratish zarurligi ta'kidlanadi [7].

Qisqacha aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti investitsion salohiyat bilan bevosita bog'liq. Ilmiy manbalardagi umumiy xulosa shundan iboratki, hududlar iqtisodiy o'sishining asosiy drayveri - bu investitsiya muhitining barqarorligi, infratuzilmaning rivojlanganligi va davlatning samarali investitsiya siyosati hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada "Investitsion salohiyatni oshirish orqali mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'llari" mavzusi doirasida ilmiy izlanishlar olib borishda zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari, tizimli va qiyosiy yondashuvlar, statistik tahlil hamda iqtisodiy modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsion salohiyat - bu muayyan hudud yoki mamlakat iqtisodiyotining investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish qobiliyatini ifodalovchi iqtisodiy kategoriyadir. U nafaqat mavjud resurslar va imkoniyatlar majmuasini, balki investitsiya jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy, institutsional, ijtimoiy va infratuzilmaviy sharoitlarni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni, investitsion salohiyat hududning iqtisodiy salohiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida investitsion salohiyatni baholash davlat siyosatida, xususan, mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Hududdagi ishlab chiqarish quvvatlari, tabiiy resurslar, mehnat zaxiralari va infratuzilma darajasi investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini belgilaydi. Shu boisdan investitsion salohiyatni oshirish har bir hududning strategik maqsadlaridan biri sifatida qaraladi.

Investitsion salohiyat, avvalo, quyidagi asosiy tarkibiy elementlar orqali namoyon bo'ladi:

- tabiiy resurslar salohiyati;
- inson kapitali va mehnat salohiyati;
- infratuzilma holati;
- moliyaviy va institutsional muhit.

Investitsion salohiyatning ahamiyati shundaki, u nafaqat kapital qo'yilmalar hajmini belgilaydi, balki hududdagi ishsizlik darajasi, aholi daromadlari, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi va iqtisodiy barqarorlik kabi ko'rsatkichlarga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Investitsiya muhitini yaxshilash orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, mahalliy ishlab chiqarish korxonalari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanadi va eksport salohiyati kengayadi.

Shu boisdan, investitsion salohiyatni to'g'ri baholash va uni oshirish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish O'zbekistonning mintaqaviy iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviy darajada investitsiya siyosati hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish, zaif rivojlangan hududlarni qo'llab-quvvatlash va ularni milliy iqtisodiyotning barqaror tarkibiy qismiga aylantirishda muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan, har bir hududning tabiiy, iqtisodiy va inson resurslariga asoslangan holda investitsiya siyosatini ishlab chiqish talab etiladi.

Mintaqaviy investitsiya siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish;
- yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish;
- innovatsiya va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- infratuzilmani modernizatsiya qilish va xizmatlar sohasini kengaytirish.

O'zbekistonda so'nggi yillarda davlat tomonidan investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha bir qator samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan: Davlat-xususiy sheriklik tizimi joriy etildi. Bu orqali infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishda xususiy sektorning ishtiroki kengaydi. Masalan, energetika, transport va sog'liqni

saqlash sohalarida bir qator yirik loyihalar amalga oshirildi. “Bir darcha” tamoyili asosida sarmoyadorlarga xizmat ko‘rsatish markazlari tashkil etildi, bu investitsiya jarayonlarini soddalashtirdi va byurokratik to‘siqlarni kamaytirdi. Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) faoliyati kengaytirildi, ular orqali sarmoyadorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari yaratildi. Ayniqsa, Navoiy, Jizzax va Angren zonalaridagi loyihalar mamlakat sanoat salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutmoqda.

2023 yilda O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 10 milliard AQSh dollaridan ortiqni tashkil etdi, bu 2017 yilga nisbatan qariyb uch barobar ko‘pdir. Bu ko‘rsatkich mamlakatda investitsiya siyosatining samaradorligini, iqtisodiy barqarorlik va xorijiy sarmoyadorlar ishonchining ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, mamlakatda hududiy investitsiya dasturlari joriy etilgan bo‘lib, ular orqali har bir viloyatning tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib sarmoya yo‘nalishlari belgilab beriladi. Masalan, Qashqadaryo viloyatida neft-gaz va kimyo sanoatiga, Namanganda to‘qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlariga, Surxondaryoda qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan loyihalar amalga oshirilmoqda.

1-jadval

Investitsiyalarning tarmoq yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimoti¹

№	Iqtisodiy faoliyat turi	Investitsiya hajmi (trln so‘m)	Ulushi (%)
1	Ishlab chiqarish sanoati	33,1	27,5
2	Elektr ta‘minoti, gaz ta‘minoti	20,0	16,6
3	Tog‘-kon sanoati	13,6	11,3
4	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	12,4	10,3
5	Uy-joy qurilishi	9,5	7,9
6	Tashish va saqlash	5,3	4,4
7	Ulgurji va chakana savdo	3,0	2,5
8	Sog‘liqni saqlash	2,1	1,7

1-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning asosiy qismi ishlab chiqarish sanoatiga to‘g‘ri keladi. Umumiy hajm 96,9 trillion so‘mni tashkil etib, bu mamlakatda sanoatlashuv jarayonining jadallashayotganini ko‘rsatadi. Eng katta ulush ishlab chiqarish sanoatida – 33,1 trillion so‘m yoki 27,5 foizni tashkil etgan. Bu yo‘nalishdagi sarmoyalar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, texnologik yangilanishlarni amalga oshirish va eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan. Elektr ta‘minoti, gaz, bug‘ va konditsiyalash tizimlariga 20,0 trillion so‘m (16,6%) investitsiya yo‘naltirilgan bo‘lib, bu energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va iqtisodiyotning barcha sohalarini energiya bilan barqaror ta‘minlashga xizmat qiladi. Tog‘-kon sanoatiga 13,6 trillion so‘m (11,3%) mablag‘ yo‘naltirilgan bo‘lib, bu tabiiy resurslardan samarali foydalanish va yangi konlarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligiga 12,4 trillion so‘m (10,3%) investitsiya kiritilgan, bu esa agrar sohani modernizatsiyalash, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda oziq-ovqat

¹ Muallif ishlanmasi

xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan. Umuman olganda, investitsiyalarning tarmoq kesimidagi taqsimoti mamlakatda ishlab chiqarish, energetika va agrar tarmoqlar ustuvor yoʻnalish sifatida saqlanib qolayotganini, xizmat koʻrsatish sohasi ulushini oshirish esa iqtisodiyotning diversifikatsiyasini kuchaytirish imkonini berishini koʻrsatadi.

2-jadval

Xorijiy investitsiyalarning tarmoq yoʻnalishlari boʻyicha taqsimoti¹

№	Iqtisodiy faoliyat turi	Ulushi (%)
1	Ishlab chiqarish sanoati	32,2
2	Elektr va gaz taʼminoti	22,7
3	Togʻ-kon sanoati	13,0
4	Qishloq xoʻjaligi	9,7
5	Qurilish	5,0
6	Tashish va saqlash	4,1
7	Suv taʼminoti va kanalizatsiya	1,7
8	Axborot va aloqa	1,0
9	Koʻchmas mulk bilan operatsiyalar	0,6
10	Boshqa faoliyat turlari	10,0

2-jadvalga koʻra, xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi ishlab chiqarish sanoatiga (32,2%) va elektr hamda gaz taʼminotiga (22,7%) toʻgʻri keladi. Togʻ-kon sanoati (13%) va qishloq xoʻjaligi (9,7%) ham muhim ulushga ega. Qurilish (5%) hamda tashish va saqlash (4,1%) sohalar infratuzilmani rivojlantirishga yoʻnaltirilgan. Qolgan sohalar - suv taʼminoti, aloqa va koʻchmas mulkka sarmoya nisbatan kam boʻlib, xorijiy investitsiyalar asosan sanoat va energetika tarmoqlarida jamlangan.

Shunday qilib, investitsiya siyosati mintaqaviy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon boʻlmoqda. Uning samarali amalga oshirilishi natijasida hududlar oʻrtasida iqtisodiy nomutanosiblik kamayadi, yangi ishlab chiqarish tarmoqlari shakllanadi, eksport salohiyati kengayadi va aholi farovonligi yuksaladi. Quyidagi jadvalda hududlar kesimida investitsiyalarning taqsimlanishi keltirib oʻtilgan.

3-jadval

Xududlar kesimida investitsiyalarning taqsimlanishi²

Viloyat	Investitsiya hajmi (trln soʻm)	Hissa (%)	Asosiy yoʻnalish
Toshkent sh.	32,5	24,3	Sanoat, xizmatlar
Navoiy	15,1	11,3	Kimyo, energiya
Samarqand	12,4	9,3	Turizm, oziq-ovqat
Fargʻona	10,7	8,1	Toʻqimachilik, mashinasozlik
Surxondaryo	5,9	4,2	Agroishlab chiqarish
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	3,8	2,9	Qishloq xoʻjaligi

¹ Muallif ishlanmasi

² Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi hisobotlari yordamida muallif ishlanmasi, 2024 yil.

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, investitsiyalarning hududiy taqsimlanishida katta tafovut mavjud. Eng yuqori investitsiya hajmi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 32,5 trln so'm yoki umumiy sarmoyalarning 24,3 foizini tashkil etmoqda. Bu holat poytaxtning sanoat va xizmatlar sohasidagi yuqori salohiyati, infratuzilmaning rivojlanganligi hamda sarmoyadorlar uchun qulay muhit mavjudligi bilan izohlanadi. Eng past ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri kelib, 3,8 trln so'm (2,9%) ni tashkil etadi va sarmoyalar asosan qishloq xo'jaligi sohasida yo'naltirilgan. Umuman olganda, jadval ma'lumotlari mamlakatda investitsiyalarning hududiy nomutanosib taqsimlanganini, poytaxt va sanoat markazlariga sarmoya oqimi yuqori, iqtisodiy jihatdan qashshoqroq hududlarda esa sarmoya faolligi pastligini ko'rsatadi. Bu esa mintaqalarda investitsiya siyosatini muvozanatlashtirish va kam qamrab olingan hududlarga rag'batlantiruvchi choralar joriy etish zarurligini anglatadi.

Dunyo amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, investitsiya salohiyatini oshirish va mintaqaviy rivojlanishni ta'minlash uchun davlatning faol ishtiroki, maqsadli dasturlar va xususiy sektor bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan va jadal o'sish yo'liga kirgan mamlakatlar tajribasi shuni tasdiqlaydiki, investitsiya muhitini yaxshilash nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, balki hududiy tengsizlikni ham kamaytiradi. Shu nuqtai nazardan Janubiy Koreya va Turkiya misolidagi modellar O'zbekiston uchun juda dolzarb hisoblanadi.

Janubiy Koreya tajribasi. Janubiy Koreya XX asrning ikkinchi yarmida industrializatsiya jarayonini jadal sur'atlarda amalga oshirgan mamlakat sifatida tanilgan. 1970-yillarda "sanoat klasterlari" va "eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot" konsepsiyasi joriy etilib, davlat iqtisodiy jarayonlarning asosiy boshqaruvchisi sifatida harakat qilgan. Hukumat maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat hududlarini tashkil etib, infratuzilmani davlat hisobiga qurgan, xususiy biznes esa ishlab chiqarish va eksport loyihalariga sarmoya kiritgan.

Bu tizim "chiroyli simbioz" (ya'ni davlat va xususiy sektor manfaatlarining uyg'unligi) asosida amalga oshgan bo'lib, qisqa vaqt ichida mamlakatda sanoat ishlab chiqarishi bir necha barobar oshgan. Eksport salohiyati 1965–1985 yillar davomida 100 barobarga o'sgan, Koreya dunyodagi yetakchi elektronika, avtomobil va kema qurish davlatlaridan biriga aylangan.

Bu modelning asosiy afzalliklari quyidagicha:

- davlat tomonidan infratuzilmaviy dastaklar yaratilishi (portlar, yo'llar, elektr tarmoqlari);
- tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish orqali innovatsiya muhitini shakllantirish;
- eksportni rag'batlantiruvchi soliq va bojxona imtiyozlari tizimi.

Turkiya tajribasi. Turkiya tajribasi esa investitsiyalarni jalb qilishda "erkin iqtisodiy zonalar" modelining samaradorligini yaqqol namoyon etadi. 1980-yillardan boshlab mamlakatda iqtisodiy liberallashtirish siyosati olib borilib, tashqi sarmoya uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Erkin iqtisodiy zonalarda sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlar ta'minlandi:

- soliq va bojxona to'lovlaridan to'liq yoki qisman ozod qilish;

- foydani erkin repatriatsiya (tashqaridan mamlakatga yoki teskari yoʻnalishda olib chiqish) huquqi;
- yer maydonlarini arzon ijaraga berish;
- maʼmuriy ruxsat jarayonlarini qisqartirish.

Natijada Turkiyaning Izmir, Istanbul va Antaliya kabi hududlarida erkin zonalar orqali yuzlab xorijiy kompaniyalar faoliyat boshladi. Bu zonalar mamlakat sanoatining eksport salohiyatini oshirishda, yangi texnologiyalarni jalb etishda va ishsizlikni kamaytirishda muhim rol oʻynadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻzbekiston uchun mazkur mamlakatlar tajribasi qator jihatlar bilan ahamiyatlidir. Birinchidan, Janubiy Koreya tajribasidan kelib chiqib, hududlarda sanoat klasterlari va innovatsion texnoparklarni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bu mahalliy ishlab chiqarishni chuqurlashtirish, hududlar oʻrtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish hamda eksportga yoʻnaltirilgan tarmoqlarni shakllantirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, Turkiya tajribasidan kelib chiqqan holda, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada kengaytirish va ularni real sektorga yaqinlashtirish zarur. Hududlarda yangi erkin sanoat va investitsiya zonalarini tashkil etish orqali sarmoyadorlarga qulay muhit yaratish mumkin.

Mazkur tajribalardan kelib chiqqan holda Oʻzbekiston uchun quyidagi amaliy choralar tavsiya etiladi:

- har bir viloyatda maxsus “investitsiya ofisi” tashkil etish orqali mahalliy va xorijiy sarmoyadorlarga axborot, huquqiy va tashkiliy yordam koʻrsatish;
- hokimliklar huzurida investitsiya boʻyicha kengashlar tuzish orqali loyihalarni muvofiqlashtirish, mahalliy ehtiyojlarga mos dasturlarni ishlab chiqish;
- sarmoyadorlar uchun yagona elektron platforma orqali barcha ruxsat, imtiyoz va shartnomalarni rasmiylashtirish tizimini yoʻlga qoʻyish;
- investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun reytingov tizim joriy etish va natijalarni ochiq eʼlon qilish;
- zaif rivojlangan hududlar uchun maqsadli soliq va kredit imtiyozlari berish orqali sarmoya oqimini muvozanatlashtirish.

Shunday qilib, xorijiy tajriba shuni koʻrsatadiki, investitsiya siyosatining samaradorligi davlatning faol ishtiroki, xususiyl sektor bilan teng hamkorlik va boshqaruv jarayonlarining shaffofligiga bogʻliq. Oʻzbekistonda ushbu yoʻnalishdagi islohotlarni izchil davom ettirish orqali hududiy iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish va mamlakatning investitsiya salohiyatini yangi bosqichga koʻtarish mumkin.

Investitsion salohiyatni oshirishning amaliy yoʻnalishlari. Infratuzilmani rivojlantirish - bu investitsiya faoliyatining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Hududlarda zamonaviy yoʻllar, transport kommunikatsiyalari, elektr va suv taʼminoti, shuningdek, tezkor internet tarmoqlarining mavjudligi sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratadi. Infratuzilmaviy baza rivojlanmagan hududlarda sarmoya oqimi sust boʻladi, shuning uchun davlat va xususiyl sektor hamkorligida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Innovatsiya va ta'lim tizimini rivojlantirish - zamonaviy iqtisodiyotning asosiy drayveridir. Har bir hududda texnoparklar, innovatsion markazlar va startap inkubatorlarini tashkil etish orqali yoshlar va tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi. Shu bilan birga, kasbiy ta'lim muassasalarining soni va sifati oshirilishi, bozor talabiga mos mutaxassislar tayyorlanishi investitsiya loyihalarining samaradorligini ta'minlaydi.

Mahalliy xomashyo bazasidan foydalanish - importga bog'liqlikni kamaytiradi va ichki resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantiradi. Bu yo'nalishda hududlarning tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish, mahalliy mahsulotni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish muhim. Ichki xomashyo manbalariga tayanish qiymat zanjirini mamlakat ichida saqlab qolish, yangi ish o'rinlari yaratish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu tahlillardan ko'rinib turibdiki, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash va investitsion salohiyatni oshirish uchun ilmiy asoslangan, kompleks va uzviy amaliy chora-tadbirlarni joriy etish zarur. Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

Hududiy investitsiya dasturlarini ilmiy asosda shakllantirish;

- Investitsiya loyihalarini raqamli platforma orqali monitoring qilish;
- Kam sarmoya jalb qilingan tumanlarda soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish;

- Ijtimoiy sohalar (ta'lim, tibbiyot, ekologiya)ga xususiy sarmoya jalb qilish mexanizmlarini yaratish;

- Davlat-xususiy sherikligi asosida "yashil iqtisodiyot" loyihalarini joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirish - bu nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash vositasi, balki aholining turmush darajasini yaxshilash, yangi ish o'rinlari yaratish va mamlakatning global raqobatbardoshligini kuchaytirishning muhim strategik yo'nalishidir. Shu bois investitsiya siyosatini ilmiy asosda takomillashtirish va uni amaliy mexanizmlar bilan ta'minlash - O'zbekistonning yaqin istiqboldagi barqaror taraqqiyoti uchun asosiy ustuvor vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hisobotlari, 2024 yil.

3. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.

4. Xonkeldiev Sh. "Mintaqaviy iqtisodiy siyosat va investitsiya faoliyati". – T.: Fan, 2022.

5. World Bank. Investing in Regional Development: Policy Lessons, 2023.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**